

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

MAMISHEV OLIM ERKINOVICH

**ULOQ-KO‘PKARI BILAN SHUG‘ULLANUVCHI
CHAVANDOZLARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH
USLUBIYATI**

**13.00.04- Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq - 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Mamishhev Olim Erkinovich

Uloq-ko‘pkari bilan shug‘ullanuvchi chavandozlarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish uslubiyati.....3

Мамишев Олим Эркинович

Методика развития физических качеств всадников, занимающихся уло- копками.....25

Mamishhev Olim Erkinovich

Methodology for developing the physical qualities of riders engaged in ulak-kupkari.....47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....51

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

MAMISHEV OLIM ERKINOVICH

**ULOQ-KO‘PKARI BILAN SHUG‘ULLANUVCHI
CHAVANDOZLARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH
USLUBIYATI**

**13.00.04- Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ped8880 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy kengashning veb-sahifasida www.jtsu.uz hamda “Ziyonet” Axborot-ta’lim portali manzilida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Arzikulov Mukum Uralovich**
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

Rasmiy opponentlar: **Raximov Vladimir Shavkatovich**
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Muxammadiyev Komil Burxonovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot: **Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” “_____” soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil:Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370) 717-27-27, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, veb-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, E bino, 3-qavat, 309-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____) raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy. Tel.: (0-370)-717-17-79, 717-27-27), faks: (0-370) 717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatilgan.
(2025-yil “___” “_____” da ___ raqamli reyestr bayonnomasi)

R.M.Matkarimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

M.A.Ibragimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, p.f.b.f.d. (PhD), professor

A.N.Shopulatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ot sport turlari yildan-yilga ommalashib, xalqaro miqyosda ham e'tirof etilayotgan jismoniy va texnik murakkablik darajasi yuqori bo'lgan musobaqalardan biri sifatida rivojlanib bormoqda. Uzoq davom etadigan musobaqalar davomida chavandozning mushak kuchi, yurak-qon tomir tizimining bardoshlilik hamda psixologik barqarorligi muhim omillardan hisoblanmoqda. Shu bois chavandozlarning jismoniy sifatlarini samarali rivojlantirishga yo'naltirilgan ilg'or usullarni joriy etish, maxsus tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo'llash sport amaliyotining dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda. Biroq, musobaqalardagi natijadorlikni oshirishga xizmat qiluvchi asosiy omillar, shuningdek, yuqori malakali chavandozlarni tayyorlashda qo'llanilayotgan uslublarning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash bo'yicha hali yetarli tadqiqotlar olib borilmaganligi ushbu mavzuni chuqur o'rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Sport sohasida natijadorlikka bo'lgan talab ortib borayotganligi sababli, sportchilarning tayyorgarlik jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, uloq-ko'pkari kabi kuch va chidamlilik talab qiluvchi sport turlarida harakatlarni texnik-taktik takomillashtirish, chavandozlarning tanani boshqarish qobiliyatini shakllantirish hamda maksimal yuklamalar sharoitida yuqori natijadorlikka erishish imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan tadqiqotlarning ahamiyati ortib bormoqda. Dunyoning ilg'or sport maktablarida jismoniy sifatlarini rivojlantirishda zamonaviy uslublar, jumladan, funksional tayyorgarlik, maxsus yuklamalar, biomexanik tahlillar va sport psixologiyasiga asoslangan yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Shunga qaramay, uloq-ko'pkari bilan shug'ullanuvchi chavandozlar uchun maxsus tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish, ularning jismoniy va psixologik tayyorgarlik jarayonlarini ilmiy asosda takomillashtirish bo'yicha yetarli darajada tadqiqotlar olib borilmagan. Shu sababli ushbu mavzuni har tomonlama tahlil qilish, ilg'or ilmiy-nazariy va amaliy yondashuvlarni rivojlantirish orqali chavandozlarning jismoniy tayyorgarlik tizimini optimallashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimizda ot sportini rivojlantirish, chavandozlarning jismoniy darajasini kuchaytirish va xalqaro musobaqalarda raqobatbardosh sportchilarni tayyorlash maqsadida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. "Ot sporti bo'yicha O'zbekiston terma jamoalari a'zolarining jismoniy rivojlanishi, funksional tayyorgarligi, texnik-taktik ko'nikmalari va psixologik barqarorligini ilmiy asosda o'rganish, monitoring qilish hamda ularning musobaqaviy natijalarini oshirish"¹ kabi vazifalar belgilangan. Bugungi kunda chavandozlarning mahoratini oshirish, yosh chavandozlarni saralash va tarbiyalash tizimini zamonaviy metodlar asosida takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ot sportining turli yo'nalishlari, jumladan uloq-ko'pkarida ishtirok etadigan chavandozlarning tayyorgarligini ilmiy asosda takomillashtirish, ularning jismoniy va psixologik salohiyatini optimallashtirish, musobaqalarga tayyorlash jarayonining samaradorligini oshirish

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-avgustdagi PQ-5211-son "O'zbekistonda yilqichilik, ot sporti, zamonaviy beshkurash va poloni 2025-yilgacha rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida"gi qarori.

soha mutaxassislari va izlanuvchilari oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-avgustdagi PQ-5211-son "O'zbekistonda 2025-yilga qadar ot sporti, zamonaviy beshkurash va poloni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 17-martdagi VM-128-son "Ot sportini rivojlantirish va sport tadbirlarini tashkil etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizning yetakchi mutaxassislar Sh.Yoldashov, D.Raxmatova, R.Salomov, S.Adilov² tomonidan uloko'pkari sport turini yanada rivojlantirish, ot sporti bilan shug'ullanuvchilarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi jismoniy tayyorgarlik yuklamalarining optimal nisbatlarini o'rganish bo'yicha ko'p yillik ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlarda ot sporti bilan shug'ullanuvchi sportchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-nazariy tadqiqotlarda, sport kuch, tezkorlik va chidamlilikni rivojlantirish bo'yicha V.N.Platonov, V.N.Seluyanov, V.A.Gavrilin³ kabi olimlar o'z izlanishlarida atroflicha yoritganlar. Ushbu tadqiqotlarda chavandozlarning sport natijalarini yaxshilash uchun dinamik yuklamalarni to'g'ri taqsimlash, energiya sarfini boshqarish va musobaqa faoliyatini optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatilgan.

Xorijiy mutaxassislar tomonidan chavandozlarning musobaqa jarayonidagi harakatlarni chuqur o'rganish asosida jismoniy tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan uslub va texnologiyalar ishlab chiqilgan. Jumladan, Y.A.Romanov, R.B.Cunningham, D.V.Gorenflo, I.Yu.Radchich, S.A.Vasilyev, G.N.Germanov,⁴

² Yoldashov Sh.S Ot sporti bilan shug'ullanuvchilarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida jismoniy tayyorgarlik yuklamalarining optimal nisbatlari. avtoref.diss. PhD.chirchiq-2023.B.5-7; Рахматова Д.Н 10-16 ёшли ўсмир спортчиларда чидамлиликни шакллантиришнинг илмий-методологик асослари. автореф.дисс. (DSc). Чирчиқ-2023. Б.33-35; Adilov S.Q Inntelektual sensor tizimlardan foydalangan holda sport kurashida koordinatsion va texnik-taktik harakatlarning integratsiyasi. avtoref.diss. PhD.chirchiq-2024. B.28-31; Salomov R.S Jismoniy tarbiya bazariyasi va uslubiati. darslik. Toshkent-2014. B.65-70;

³ Платонов В.Н. Теория и методика спортивной тренировки. – М.: Физкультура и спорт, 2012. – 512 с; Селуянов В.Н., Латышев Н.В. Биомеханика спортивных движений и подготовка всадников. – Москва: Изд-во МГУ, 2017. – 288 с; Гаврилин В.А. Конный спорт и физическая подготовка всадников. – Санкт-Петербург: Изд-во Университета им. Лесгафта, 2015. – 284 с.

⁴ Романов Ye.A. Система функциональной подготовки всадников. – Москва: Наука и спорт, 2016. – 312 с; Cunningham R.B., Gorenflo D.V. Equine Sports Medicine: Current Perspectives. – New York: Springer, 2018. – 376 p; Cunningham R.B., Gorenflo D.V. Equine Sports Medicine: Current Perspectives. – New York: Springer, 2018. – 376 p; Radchich I.Yu., Vasilyev S.A. Физиология спорта и развитие выносливости в конном спорте. – Москва: Наука, 2019. – 392 с; Радчич И.Ю. Васильев С.А. Физиология спорта и развитие выносливости в конном

kabi tadqiqotchilar chavandozlarning fiziologik monitoring, biomexanik tahlillar va sport rehabilitatsiyasiga asoslangan mashg'ulot tizimlarining samaradorligini o'rganib chiqqanlar. Shuningdek, ot sportida texnik-taktik tayyorgarlik jarayonlarida yuklamalarni optimallashtirish uchun sport fiziologiyasi va murabbiylik uslublarini uyg'unlashtirishning afzalliklari ta'kidlangan. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, ot sporti bilan shug'ullanayotgan sportchilarda jarohatlanishlarning oldini olish uchun individual yondashuv va biomexanik analizlar asosida mashg'ulot jarayonlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Uloq-ko'pkari sporti bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur sport turi sportchilardan yuqori darajadagi chidamlilik, kuch, tezkorlik va koordinatsiya talab qiladi. Shu sababli, xalqaro va milliy darajadagi tadqiqotlar asosida chavandozlar uchun maxsus tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish muhim ilmiy vazifalardan biri bo'lib kemoqda. Yaqin yillarda, ushbu sport turi bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar kengayib, uning asosiy yo'nalishlari sifatida musobaqaviy jarayonlarda chidamlilik va texnik-taktik ko'nikmalarni rivojlantirish, chavandozlarning funksional imkoniyatlarini oshirish va mashg'ulot jarayonlarini individuallashtirish ko'zda tutilmoqda. Shu jihatdan, zamonaviy sport ilmiy tadqiqotlariga asoslangan holda davom ettirish va yangi innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishining mavzusi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Milliy terma jamoa a'zolarining o'quv-mashg'ulotlari va musobaqa faoliyatini tahlil qilish hamda sportchilarning texnik-taktik va maxsus ish qobiliyatlarini ilmiy-uslubiy jihatdan rivojlantirishni yo'lga qo'yish" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi uloq-ko'pkari bilan shug'ullanuvchi chavandozlarning jismoniy sifatlarini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

chavandozlarning kuch va chidamlilik sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mikrosikl mashqlar majmuasini ishlab chiqish;

turli malakaga ega chavandozlarning ot ustida barqarorlikni ta'minlash tezlik va koordinatsion sifatlarini oshirish dasturini ishlab chiqish;

malakali chavandozlarning maxsus chidamliligini oshirish maqsadida yillik tayyorgarlik siklini takomillashtirish;

yuqori malakali chavandozlarning musobaqa faoliyatida strategik qaror qabul qilish imkoniyatini kengaytirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida chavandozlar maktablarining uloq-ko'pkari bilan shug'ullanuvchi chavandozlarning o'quv-mashg'ulotlar jarayoni tanlab olingan.

спорте. – Москва: Наука, 2019. – 392 с; Germanov G.N. Physical Training and Competitive Performance in Equestrian Sports. – Berlin: Akademia, 2021. – 340 p.

Tadqiqotning predmetini uloq-ko'pkari bilan shug'ullanuvchi chavandozlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish vositalari va uslublaridan foydalanish jarayoni tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv, anketa so'rovnoma, pedagogik testlash, ekspert baholash uslubi, pedagogik tajriba, matematik-statistik kabi usublardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

chavandozlarning kuch va chidamlilik sifatlarini rivojlantirish maqsadida qo'shimcha og'irlik bilan bajariluvchi maxsus mashqlar majmuasini mikrosikllarda foydalanish hisobiga musobaqa faoliyatida uzoq vaqt murakkab-texnik harakatlarni bajarish imkoniyatlari kengaytirilgan;

turli malakali chavandozlarning tezlik va koordinatsion sifatlarini rivojlantiruvchi (bazaviy, tortuvchi, nazorat-tayyorlov, musobaqa oldi) mezosikllarida bajariladigan vositalarni o'zida mujassam etgan mashg'ulot dasturini ishlab chiqish hisobiga jismoniy tayyorgarlik darajasini tizimli rivojlantirishga erishilgan;

malakali chavandozlarning ot ustida harakatlanishdagi maxsus chidamliligini oshirish, yillik tayyorgarlik rejasini takomillashtirish maqsadida musobaqa faoliyatini inobatga olgan holga bloklarga ratsion taqsimlangan dasturni ishlab chiqish orqali musobaqa jarayonidagi taktik harakatlarni bajarish samaradorligi oshirilgan;

yuqori malakali chavandozlarning musobaqa vaqtidagi raqiblar tomonidan bajariladigan turli taktik harakatlarga qarshi tezkor kombinatsion usullarni qo'llash uchun ishlab chiqilgan maqsadli-model yordamida tayyorlanish hisobiga ot ustida muvozanatni saqlash, qisqa vaqt ichida strategik qaror qabul qilish imkoniyatlari kengaytirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

chavandozlarning kuch va chidamlilik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulot uslubi mashg'ulot jarayoniga joriy etilgan va samaradorlik oshirilgan.

aerob va anaerob imkoniyatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi maxsus mashqlar mashg'ulot jarayonida qo'llanilgan va sportchilar tayyorgarlik darajasi oshirilgan.

psixologik barqarorlik va stressga chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar tayyorgarlik jarayonida tashkil etilgan va sportchilar ruhiy tayyorgarligi yaxshilangan.

tezlik va koordinatsiya sifatlarini rivojlantirishga mo'ljallangan mashqlar mashg'ulot jarayoniga kiritilgan va musobaqa natijalarining barqarorligi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi bilish nazariyasi metodologiyasi hamda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va uslubiyati sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar, shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning hamda tajribali amaliyotchi murabbiylarning fikr-mulohazalariga asoslanishiga bog'liqdir. Tadqiqot jarayonida qo'yilgan vazifalarga mos keluvchi hamda bir-birini to'ldiruvchi turli tadqiqot usullari qo'llanilgan bo'lib,

bu usullar natijalarning miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilinishini ta'minlagan. Bundan tashqari, tajriba-sinov ishlarining yetarli darajada reprezentativligi va olingan natijalarning matematik-statistik tahlil uslublari asosida qayta ishlanishi tadqiqot ishonchligini mustahkamlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot davomida qo'llanilgan nazariy yondashuvlar va tanlangan metodologik asoslar jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlarga tayanadi, tadqiqot natijalari sportchilar, xususan, chavandozlarning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda qo'llaniladigan samarali metodlarni aniqlashga qaratilgan bo'lib, ushbu yo'nalishdagi ilmiy bilimlarni kengaytirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, eksperimental tajribalarda qo'llanilgan metodik tavsiyalar va jismoniy tayyorgarlikni oshirishga qaratilgan mashg'ulotlar tizimi chavandozlarning musobaqaviy faoliyatida samaradorlikni oshirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi, tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar sportchilarning mashg'ulot jarayonini yanada mukammal rejalashtirish, yuklamalarni individual me'yorlash, mashg'ulot jarayonida maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini monitoring qilish va sport natijalarini yaxshilash uchun ishonchli baholash usullaridan foydalanish imkonini beradi. Ushbu tavsiyalar chavandozlarning maxsus jismoniy tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqishda hamda musobaqalarga tayyorgarlik jarayonini takomillashtirishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. uloq-ko'pkari bilan shug'ullanuvchi chavandozlarning jismoniy sifatlarini oshirishga yo'naltirilgan tajriba tadqiqotlari asosida:

chavandozlarning kuch va chidamlilik sifatlarini rivojlantirish maqsadida qo'shimcha og'irlik bilan bajariluvchi maxsus mashqlar majmuasini mikrosikllarda foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar Toshkent viloyati Chavandozlar maktabida o'tkazilgan sport mashg'ulotlariga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 25-martdagi 02-16/2905-son ma'lumotnomasi). Natijada, egiluvchanlik bo'yicha yakuniy ko'rsatkichlar boshlang'ich ko'rsatkichlarga nisbatan 33 % ga oshgan;

turli malakali chavandozlarning tezlik va koordinatsion sifatlarini rivojlantiruvchi (bazaviy, tortuvchi, nazorat-tayyorlov, musobaqa oldi) mezosikllarida bajariladigan vositalarni o'zida mujassam etgan mashg'ulot dasturi bo'yicha taklif va tavsiyalar Samarqand viloyati Chavandozlar maktabida o'tkazilgan sport mashg'ulotlariga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 25-martdagi 02-16/2905-son ma'lumotnomasi). Natijada, chavandozlarning chaqqonlik ko'rsatkichlari 11 % ga rivojlangan;

malakali chavandozlarning ot ustida harakatlanishdagi maxsus chidamliligini oshirish, yillik tayyorgarlik rejasini takomillashtirish maqsadida musobaqa faoliyatini inobatga olgan holga bloklarga ratsion taqsimlangan dastur bo'yicha taklif va tavsiyalar Toshkent shahar Chavandozlar maktabiga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 25-martdagi 02-16/2905-son ma'lumotnomasi). Natijada, sportchilarning tezlik ko'rsatkichlari boshlang'ich ko'rsatkichlarga nisbatan 18 % ga oshgan;

yuqori malakali chavandozlarning musobaqa vaqtidagi raqiblar tomonidan bajariladigan turli taktik harakatlarga qarshi tezkor kombinatsion usullarni qo‘llash uchun ishlab chiqilgan maqsadli-model bo‘yicha taklif va tavsiyalar O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida tahsil oluvchi talabalarning amaliy mashg‘ulotlariga tatbiq etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 25-martdagi 02-16/2905-son ma‘lumotnomasi). Natijada, musobaqa mobaynida bajariladigan texnik-taktik harakatlar natijadorligi 28,2 % ga oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida 3 ta maqola, jumladan 2 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bob, xulosa, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 108 betni tashkil etib, 18 ta jadval, 22 ta rasm va joriy etish dalolatnomalarini o‘z ichiga oladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan. Ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, ishning tuzilishi borasidagi ma‘lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **“Chavandozlarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish muammolarini o‘rganilganlik holati”** deb nomlangan birinchi bobida chavandozlarni tayyorlashdagi muammolar, ularning mashg‘ulot jarayoni xususiyati va yo‘nalishi bo‘yicha har xil vosita va usullardan foydalanish, vositalarini tasniflash va o‘quv-mashg‘ulot jarayonida aniq atamalar qo‘llash, chavandozlarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan vositalarning me‘yor va hajmlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keng yoritib berilgan.

Bundan tashqari, bobda chavandozlarni tayyorlash jarayonida qo‘llanadigan vositalarni tizimli ravishda tasniflash, ularning samaradorligini oshirish maqsadida metodik yondashuvlar ishlab chiqish zarurati asoslab berilgan. O‘quv mashg‘ulotlarida qo‘llaniladigan atamalarni standartlashtirish, ularni bir xil va tushunarli tarzda tatbiq etish muhimligi ta‘kidlangan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning uslublari va tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida chavandozlarning maxsus jismoniy tayyorgarlikda chidamlilik qobiliyatlarini rivojlantirishga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili,

pedagogik kuzatish, pedagogik nazorat, pedagogik testlash, anketa so'rovi, instrumental usullari pedagogik tajriba, matematik statistika uslublari tadqiqotning tashkil qilish yuzasidan ma'lumotlar bayon etilgan.

Shuningdek, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish va xulosalashda qo'llanilgan matematik-statistik usullar ham bayon etilgan bo'lib, ularning yordamida eksperiment natijalarining ishonchliligi va ahamiyati statistik jihatdan asoslab berilgan. Umuman olganda, ushbu bobda tadqiqot ishining ilmiy-metodik asoslari va ularni amaliyotga tadbiiq etish mexanizmlari batafsil yoritib berilgan.

Mazkur dissertatsiya tadqiqotlarini tashkil etish 3 ta bosqichda amalga oshirilgan:

Birinchi bosqich (2022-y.) - dastlab ot sportiga oid bo'lgan materiallarni topish va jamlash, nashr etilgan o'quv adabiyotlar va boshqa yozma manbalarda yoritilgan ilmiy-uslubiy ishlarni nazariy jihatdan tahlil qilish, mavjud muammo va kamchiliklarni aniqlash, ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borish uchun mavzu tanlash; tadqiqot maqsadi va vazifalarini aniqlash, aniqlangan muammoni hal etish maqsadida amaliyotdagi asl holatni o'rganish; jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotiga muvofiq o'rganilayotgan muammoning hal qilinishiga asos bo'luvchi choralarni o'rganish;

Ikkinchi bosqich (2022-2023 yy.) bir qator vazifalardan iborat: tajriba obyektining (yosh chavandozlar soni) zaruriy sonini tanlash; tajribani o'tkazishning zaruriy davomiyligini aniqlash; tajriba obyektining boshlang'ich holatini o'rganish uchun muayyan uslubiy yo'nalishni tanlash; tajriba-sinovdan o'tayotganlarning kichik sonida uslublarning qulayligi va samaradorligini tekshirish; muvofiq pedagogik harakatlar ta'sirida tajriba obyektidagi o'zgarishlar xususida dalolat beruvchi belgilarni aniqlash.

Uchinchi bosqich (2023-2024 yy.) - ishlab chiqilgan uslubiyatning samaradorligini teshkirish bo'yicha tajriba o'tkazishga yo'naltirildi. Bu bosqich quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi: tajriba o'tkazilayotgan tizimning boshlang'ich holatini o'rganish (yosh chavandozlarning jismoniy rivojlanishi, funksional holati va jismoniy tayyorgarlik darajasi aniqlanadi); tajriba o'tkazilayotgan sharoitlarning boshlang'ich holatini o'rganish; taklif qilingan chora-tadbirlar tizimining samaradorligi mezonlarini shakllantirish; tajriba ishtirokchilariga tajribani samarali o'tkazish tartibi va shartlari haqida yo'l-yo'riq berish; aniq tajriba vazifasini hal qilish bo'yicha tadqiqotchi taklif qilgan chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish; choralarning tajriba tizimi ostida obyektlardagi o'zgarishlarni tavsiflovchi oraliq kesimlar asosida tajribaning borishi haqidagi ma'lumotlarni qayd etish.

To'rtinchi bosqich (2023-2024 yy.) - yakuniy bosqich bo'lib, tajriba natijalarini ishlab chiqishga qaratildi: tajribadagi choralarni tizimini amalga oshirish natijalarini yoritish (yosh chavandozlarning jismoniy rivojlanishi, funksional holati va jismoniy tayyorgarlik darajasi, shuningdek, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash darajasi); tajribaviy ta'sir subyektlari (yosh chavandozlar va trener-yo'riqchilar) xususiyatlarini ta'riflash. Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan belgilangan talablar asosida dissertatsiyani himoyaga tayyorlash.

Dissertatsiyaning **“Uloq-ko‘pkari bilan shug‘ullanuvchi chavandozlarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish uslublari”** deb nomlangan uchinchi bobida dastlab, chavandozlarning kuch va chidamlilik sifatlarini rivojlantirish milliy sportimiz uloq-ko‘pkarini yanada yuksak darajaga olib chiqishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu sport turi jismoniy va psixologik tayyorgarlikning yuqori darajasini talab qiladi, chunki chavandozlar doimiy ravishda intensiv yuklamalar, tezkor harakatlar va strategiyalarni qo‘llash sharoitida faoliyat yuritadi.

Metodikaning asosiy jihatlaridan biri mashg‘ulot jarayonining sikllarga bo‘linganligi hisoblanadi. U tayyorgarlik, asosiy va tiklanish bosqichlarini o‘z ichiga olib, har bir bosqichning o‘ziga xos vazifalari bor. Bu sportchilarning jismoniy imkoniyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish va ortiqcha yuklamalardan saqlanish imkonini beradi. Mashqlarning bajarilish texnikasiga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, bu jarohat xavfini kamaytirish va mashg‘ulot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Dastur doirasida amaliy mashg‘ulotlar har bir kunda aniq yo‘nalishga ega bo‘lib, ularning barchasi kuch va chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan. Jumladan, yugurish, intervalli mashqlar, giryalar bilan mashg‘ulotlar, ot ustidagi maxsus mashqlar va cho‘zilish amaliyotlari orqali sportchilarning mushak tolalari kuchayishi, aerobik va anaerob chidamlilik rivojlanishi ta‘minlanadi. Shuningdek, nafas olish tizimini mustahkamlashga qaratilgan maxsus mashqlar, sportchilarning oksigenatsiya darajasini yaxshilashga yordam beradi.

Metodikaning yana bir muhim jihati chavandozlarning psixologik tayyorgarligini kuchaytirishdir. Meditatsiya, stressni boshqarish texnikasi va vizualizatsiya mashqlari orqali sportchilarda ruhiy barqarorlik va motivatsiya darajasi oshiriladi. Bu musobaqa davomidagi stressga chidamlilikni yaxshilash va samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Ushbu metodika chavandozlarning umumiy jismoniy va psixologik holatini yaxshilash, musobaqa davomida yuz beradigan intensiv yuklamalarga tayyorgarlik darajasini oshirish va milliy sportimizni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv, shuningdek, chavandozlarning xalqaro arenalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishlariga yordam beradi. Dasturning amaliyotda qo‘llanilishi samarali natijalarga erishish va ushbu sport turining ilmiy-uslubiy asoslarini boyitish imkonini yaratadi.

Shuningdek, ushbu metodikada individual yondashuv prinsipiga alohida e‘tibor qaratilgan. Har bir chavandozning jismoniy imkoniyatlari, tayyorgarlik darajasi va psixofiziologik xususiyatlariga qarab, mashg‘ulotlar individual tarzda modellashtiriladi. Bu yondashuv sportchilarning o‘z salohiyatlarini maksimal darajada namoyon qilishlariga yordam beradi va jarohatlar xavfini kamaytirishga xizmat qiladi. Xususan, sportchining yuklama bardoshliligi, tiklanish tezligi va harakat koordinatsiyasi doimiy monitoring asosida baholanadi va mashg‘ulotlar shunga mos tarzda moslashtiriladi.

1-jadval

Chavandozlarni kuch va chidamlilik sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mshqlar majmuasi

Kun	Mashqlar	Bajarilish tartibi	Davomiylik	Yuklama darajasi
Dushanba	Shtanga bilan o‘tirib turishlar, yotgan holda shtangani yuk bilan ko‘tarishlar, burilish mashqlari	3 marta, 12 takrordan. Kuchli mushak guruhlariga yuklamalar beriladi.	60 daqiqa	O‘rtacha
Seshanba	5 km masofada yugurish, tiklanish mashqlari	Yugurish orqali aerobik chidamlilik rivojlantiriladi. Cho‘zilish bilan tiklanish ta‘minlanadi.	45 daqiqa	Past
Chorshanba	Intervalli yugurish: 400 m sprint (6 marta)	400 metr yugurishlar, har biri orasida 2 daqiqa dam olish. Anaerob chidamlilik uchun.	50 daqiqa	Yuqori
Payshanba	Girya bilan kuch mashqlari, texnika ustida ishlash	Giryalar bilan ishlash. Mushaklar kuchi va chidamlilikni oshirish maqsadida.	60 daqiqa	O‘rtacha
Juma	Aralash mashqlar: yugurish + kuch mashqlari + cho‘zilish	Yugurish, girya mashqlari va cho‘zilish aralash trening.	70 daqiqa	Yuqori

Chavandozlarning kuch va chidamlilik sifatlarini rivojlantirish uloq-ko‘pkari milliy sport turida yuqori natijalarga erishishning muhim omilidir. Bu sport turining jismoniy murakkabligi va dinamikasi sababli mashg‘ulot jarayoni zamonaviy ilmiy-nazariy va amaliy yondashuvlar asosida tashkil etilishi kerak. Ushbu metodikada uning ilmiy asoslari, amaliy qo‘llanilishi va kutilgan natijalar keng yoritiladi.

Tezlik va koordinatsiya sport turlari, jumladan, uloq-ko‘pkari uchun muvaffaqiyat omillaridan biridir. Ushbu sifatlarni rivojlantirish uchun sportchilarni yoshi, malaka darajasi va tayyorgarlik bosqichlarini hisobga olgan holda to‘g‘ri tashkil etilgan mashg‘ulot dasturi zarur. Mazkur metodika sportchilarning jismoniy va psixologik tayyorgarligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, 4 haftalik mikrosiklga bo‘lingan. Har bir mikrosikl yosh chavandozlar, malakali chavandozlar va yuqori malakali chavandozlar uchun alohida dasturlarni o‘z ichiga oladi. Metodikaning maqsadi:

- sifatlarini tizimli ravishda rivojlantirish.
- sportchilarning o‘yin texnikasi va strategiyasini yaxshilash.
- turli darajadagi chavandozlar uchun optimal tayyorgarlik sharoitini yaratish.

Tezlik va koordinatsiya chavandozlarning muvaffaqiyatli musobaqalarda ishtirok etishi uchun muhim jismoniy sifatlar hisoblanadi. Ushbu sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan metodika to‘g‘ri tuzilgan mashg‘ulot dasturlari orqali amalga oshiriladi. Mazkur qo‘llanma turli darajadagi chavandozlar uchun to‘rt

haftalik tayyorgarlik jarayonida foydalanishga mo'ljallangan bo'lib, yosh, malakali va yuqori malakali sportchilar uchun individual yondashuvni nazarda tutadi.

Bu qo'llanma metodikadan samarali foydalanish bo'yicha batafsil tavsiyalarni, mashg'ulotlar mazmunini va har bir bosqichning ilmiy asoslarini o'z ichiga oladi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Turli malakaga ega chavandozlarning ot ustida barqarorligini ta'minlash, tezlik va koordinatsion sifatlarini oshirish dasturi

Hafta	Yosh chavandozlar	Malakali chavandozlar	Yuqori malakali chavandozlar	Mashg'ulot davomiyligi
1-hafta	Sprint yugurish (20-30 metr, 8 marta), koordinatsion to'siqlar bilan mashqlar, sakrash mashqlari	Sprint (30-40 metr, 8-10 takror), sakrashlar va aylanishlar bilan to'siqlar osha yugurish	50-60 metr sprint (maksimal tezlikda), anaerob yuklamalar bilan interval mashqlar	40-50 daqiqa
2-hafta	Yugurish va aylanish mashqlari (15-20 daqiqa), tezlikni oshirish bo'yicha to'siqli yugurish	400 metr intervalli yugurish (6 seriya), ot ustida koordinatsion mashqlar	Ot ustida yuqori shiddatdagi koordinatsion mashqlar (30-40 daqiqa)	50 daqiqa
3-hafta	Intervalli yugurish (40 metr, 6 seriya), muvozanatni saqlash uchun maxsus mashqlar	Sprint (50 metr, maksimal tezlikda), muvozanat mashqlari (10-15 daqiqa)	400 metr yugurish (maksimal tezlik bilan 6 seriya), otni boshqarish bo'yicha texnik mashqlar	50-60 daqiqa
4-hafta	Tezkor yugurish va mashqlarni kompleks bajarish (30-40 daqiqa)	Yugurish va kuch mashqlari kombinatsiyasi (40-50 daqiqa)	Koordinatsiya va tezlikni rivojlantiruvchi kompleks mashqlar (50-60 daqiqa)	60 daqiqa

Mazkur metodikaning maqsadi sifatlarini tizimli rivojlantirish orqali chavandozlarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish, ularga musobaqalarda yuqori natijalarga erishish uchun imkoniyat yaratish.

Maxsus chidamlilik - bu ko'plab sport turlari, ayniqsa, yuqori intensivlik va davomiy jismoniy faoliyat talab qilinadigan sport turlari uchun muhim bo'lgan jismoniy sifattir. Milliy sportimiz bo'lgan uloq-ko'pkarida qatnashuvchi malakali chavandozlar uchun maxsus chidamlilik hal qiluvchi omil hisoblanadi. Ushbu sifat uzoq davom etadigan yuklamalarga bardoshlilik, yuqori intensivlikni uzoq vaqt saqlab turish va musobaqa sharoitlariga moslashuvni ta'minlaydi.

Mazkur metodika yillik tayyorgarlik rejasini o'z ichiga olgan bo'lib, u zamonaviy ilmiy-nazariy va amaliy yondashuvlarga asoslangan metodika tayyorgarlikning barcha bosqichlarini, jumladan boshlang'ich, maxsus, musobaqa va tiklanish davrlarini o'z ichiga oladi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Malakali chavandozlarning maxsus chidamliligini oshirish dasturi

Tayyorgarlik bosqichlari	Davomiyligi	Mezosikllar	Mashg'ulot rejasi	Mashg'ulot soatlari	Musobaqalar
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi	12 hafta (yanvar-mart)	Umumiy chidamlilik, kuch	Aerob yuklamalar, asosiy kuch mashqlari, uzoq masofalarga yugurish (10-12 km)	10-12 soat/hafta	Tayyorgarlik musobaqalari
Maxsus tayyorgarlik bosqichi	16 hafta (aprel-iyul)	Maxsus chidamlilik va tezlik	Intervalli mashqlar, ot ustidagi tezlik va chidamlilik mashqlari	14-16 soat/hafta	Hududiy musobaqalar
Musobaqa oldi bosqichi	8 hafta (avgust-sentyabr)	Musobaqa oldi tayyorgarlik	Simulyatsion mashg'ulotlar, musobaqa sharoitlariga moslashuv	8-10 soat/hafta	Milliy chempionatlar
Musobaqa bosqich	6 hafta (oktyabr-noyabr)	Musobaqada maksimal samaradorlik	Musobaqalar va ularga tayyorgarlikning yakuniy bosqichlari	6-8 soat/hafta	Hal qiluvchi musobaqalar
Tiklanish bosqichi	4 hafta (dekabr)	Tiklanish va sog'lomlashtirish	Cho'zilish mashqlari, yengil aerob yuklamalar, massaj	4-6 soat/hafta	Dam olish davri

Maxsus chidamlilikni rivojlantirish quyidagi fiziologik jarayonlar bilan bog'liq:

Aerob imkoniyatlar. Maxsus chidamlilikni rivojlantirishda maksimal kislorod iste'moli (VO_2 max) darajasini oshirish va mushaklarning kisloroddan foydalanish samaradorligini yaxshilash talab etiladi.

Anaerob jarayonlar. Yuqori shiddatdagi faoliyatda laktat to'planishini kamaytirish uchun anaerob imkoniyatlar va organizmning buferlik qobiliyatini rivojlantirish muhim.

Energetik tizimlar. Oksidlovchi va glikolitik tizimlarning quvvati va samaradorligini oshirish orqali uzoq muddatli yuklamalar bardoshlilik ta'minlanadi.

Taktik tayyorgarlik chavandozlar faoliyatida musobaqa sharoitlarida yuqori natijaga erishish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu jarayon nafaqat sportchining strategik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, balki ularning raqib harakatlariga tezkor javob berish va murakkab o'yin vaziyatlarida samarali qaror qabul qilish ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Taktik tayyorgarlik murakkab o'yin sportlarida, xususan, chavandozlar ishtirok etadigan o'yinlarda maxsus ahamiyat kasb etadi.

Ushbu uslubiyat zamonaviy sport nazariyasi va amaliyotining tamoyillariga asoslanib ishlab chiqilgan. Metodikadagi mashqlar tizimi sportchilarning musobaqa oldi va musobaqa davomida o'z imkoniyatlarini maksimal darajada namoyon etishiga qaratilgan.

Taktik tafakkur sportchining o'yin vaziyatlarida raqib harakatlarini oldindan ko'ra bilish, vaziyatni tahlil qilish va o'z harakatlarini optimallashtirish imkoniyatini beradi. Bu jarayon quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- o‘yin vaziyatlarini modellashtirish. Sportchining o‘yin davomida yuzaga keladigan real vaziyatlarga moslashishi uchun maxsus mashqlar tashkil etiladi. Virtual simulyatorlar yoki murabbiy tomonidan yaratilgan vaziyatlar sportchilarning strategik fikrlashini kuchaytiradi.

- taktik kombinatsiyalarni takrorlash. Raqib harakatlarini oldindan tahlil qilish va ularga moslashish uchun har xil kombinatsiyalar ishlab chiqiladi va takroriy mashqlar orqali o‘rganiladi.

Shuningdek, taktik tafakkurni rivojlantirish uchun sportchilarning o‘z o‘yin tajribasini tahlil qilish va xulosalar chiqarish jarayonini shakllantirish zarur. Ushbu yondashuv ularning kelgusidagi o‘yin natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Jamoaviy uyg‘unlik sportchilar orasidagi o‘zaro aloqani shakllantiradi va ularning musobaqalarda samarali ishlashiga yordam beradi. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

Mazkur metodika zamonaviy sport nazariyasi va amaliyoti tamoyillariga asoslangan bo‘lib, chavandozlarning taktik tafakkurini, strategik qobiliyatlarini va musobaqa sharoitlariga moslashuvchanligini rivojlantirishga qaratilgan. Bu uslubiyat nazariy asoslangan va amaliyotda tasdiqlangan maxsus mashqlar tizimini o‘z ichiga oladi.

Taktik mahorat sportchining o‘yin jarayonida samarali strategiyalarni ishlab chiqish, qaror qabul qilish va raqib harakatlariga moslashish imkoniyatlarini rivojlantirish bilan bog‘liq. Ushbu qobiliyatlar musobaqalardagi natijalarga sezilarli darajada ta‘sir qiladi.

Taktik tafakkur chavandozning o‘yin davomida yuzaga keladigan murakkab vaziyatlarni tahlil qilish va samarali javob harakatlarini amalga oshirish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyatni rivojlantirishda quyidagi tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, taktik tayyorgarlik – bu faqatgina o‘yin strategiyasini o‘rganish emas, balki sportchining umumiy intellektual, ruhiy va jamoaviy salohiyatini keng qamrovda shakllantirishdir. Uloq-ko‘pkari kabi murakkab va dinamik sport turida bu yondashuv chavandozlarning yuqori darajadagi natijalarga erishishida muhim rol o‘ynaydi.

Dissertatsiyaning **“Uloq-ko‘pkari bilan shug‘ullanuvchi chavandozlarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish uslubiyati samaradorligi”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida chavandozlarning o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda yuklamalarni me‘yorlash vositalarini tatbiq qilish va natijalar orqali tajriba samaradorligini asoslashga qaratilgan materiallar aks ettirilgan.

Pedagogik tadqiqot boshida Nazorat guruhi sportchilariga standart jismoniy mashg‘ulotlar dasturi taqdim etildi, lekin maxsus tayyorlov dasturlari qo‘llanilmadi. Ushbu guruhda dastlabki va yakuniy natijalarni tahlil qilish orqali maxsus tayyorlov dasturlarining ahamiyatini aniqlashga imkon yaratildi.

Tadqiqot yakunidagi jismoniy tayyorgarlik qiyosiy tahlil ko'rsatkichlari (n=40)

T/r	Ko'rsatkichlar	Nazorat guruhi				t	P	Tajriba guruhi				t	P
		TB		TO				TB		TO			
		\bar{X}	σ	\bar{X}	σ			\bar{X}	σ	\bar{X}	σ		
1	Egiluvchanlik (sm)	12,78	1,17	13,49	1,04	1,94	>0,05	12,77	1,50	13,90	1,46	2,27	<0,05
2	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	182,59	13,57	186,29	13,09	0,83	>0,05	181,83	16,23	193,23	14,38	2,23	<0,05
3	3×10 m mokisimon (soniya)	8,28	0,87	7,93	0,73	1,31	>0,05	8,40	0,65	7,85	0,57	2,68	<0,05
4	1000 m yugurish (soniya)	240,94	13,92	235,29	9,95	1,40	>0,05	244,57	20,97	224,91	15,88	3,17	<0,01

Izoh: TB – tadqiqot boshida; TO – tadqiqot oxirida; \bar{X} - ko'rsatkichlarning o'rtacha arifmetik qiymati; σ - standart og'ish; t - studentning qiymati; P - ishonchlik darajasi.

Mazkur jadvaldagi tadqiqot natijalari asosida jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini chuqur ilmiy tahlil qilish natijasida tajriba va nazorat guruhlarini sportchilarining fiziologik imkoniyatlari, tayyorgarlik darajasi va mashg'ulotlarning samaradorligi o'rtasida sezilarli farqlar mavjudligi aniqlangan.

Egiluvchanlik bo'yicha ko'rsatkichlarni tahlil qilar ekanmiz, tajriba guruhida sezilarli darajada yaxshilangani ($14,38 \pm 1,46$ sm, $t=2,27$, $P<0,05$), nazorat guruhida esa ushbu ko'rsatkichning ahamiyatli darajada o'zgarmagani kuzatildi. Bu holat tajriba guruhida mushaklarning cho'zilish va harakat amplitudasini oshirishga qaratilgan maxsus mashg'ulotlar tizimli qo'llanilganini ko'rsatadi.

uzunlikka sakrash bo'yicha natijalarda ham sezilarli farqlar qayd etildi, ya'ni tajriba guruhida ko'rsatkich $193,23 \pm 14,38$ sm ga yetgan holda statistik jihatdan ishonchli ($t=2,23$, $P<0,05$) o'sish kuzatilgan bo'lsa, nazorat guruhida $186,29 \pm 13,90$ sm etib kichik o'zgarish qayd etilgan. Bu o'zgarishlar sportchilarning portlovchi kuch va muvozanat qobiliyatlarini yaxshilashga qaratilgan maxsus mashg'ulotlarning foydalanish darajasi bilan bog'liq.

3×10 metr ga yugurish bo'yicha tezkorlik ko'rsatkichlari tajriba guruhida $7,07 \pm 0,57$ soniyaga pasayib, katta ahamiyatga ($t=2,68$, $P<0,05$) ega natijalar qayd etildi, bu esa mashg'ulotlar jarayonida tezkor harakatlar va muvofiqlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan muvaffaqiyatli dasturlardan foydalanilganligini ko'rsatadi. Bir vaqtning o'zida nazorat guruhida ko'rsatkichlar statistik jihatdan ahamiyatsiz darajada o'zgargan ($t=0,57$, $P>0,05$).

